

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH BO'YICHA XORIJ  
TAJRIBASI VA UNDAN YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH  
IMKONIYATLARI**

**Maxamadiyev Alimardon Chariyarovich**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistri*

*e-mail: maxamadiyevalimardon@mail.ru*

**Annatatsiya:** Maqolada Kichik biznes subektlarini kreditlash bo'yicha bir qancha rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Kichik biznes va uni qo'llab quvvatlash, unga ko'ra kichik biznes subektlarini bonifikatsiya usulida kreditlash bir qator afzalliklari, kreditlash bo'yicha ko'plab usullari hamda tajribani respublikamiz amaliyotida qo'llash tartibini joriy qilish takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Kichik biznes subektlari, bank, tijorat bank, kredit, subsidiya, mikroqarz.

### **KIRISH**

Taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada boy tajribaga ega ekanligidan dalolat berib turadi. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes sub'ektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes ulushining ortib borishi esa, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 51,8 foizni tashkil etmoqda[1].

Xalqaro amaliyotda yirik moliya muassasasi hisoblangan Jahon banki tomonidan kichik biznes sub'ektlarini kreditlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar ko'lami yildan –yilga ko'payib bormoqda[1]. Ushbu ishlar natijasida jahon amaliyotida, kichik biznes sub'ektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, kreditlardan samarali foydalanish bilan bog'liq jihatlariga a'lovida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlariga xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda[2]. Xususan, kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilayotganligi, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralayotganligi, rivojlangan mamlakatlarda va ayrim o'tish qitisodiyoti mamlakatlarida kichik biznesni kreditlash borasida katta amaliy va yuqori tajribalar to'plangan bo'lib, ulardan yangi O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlariga baho berish muhim ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Germaniya, Fransiya mamlakatlarining amaliyotida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning imtiyozli foiz stavkasi bilan bozor stavkasi o'rtaqidagi farq davlat budgetining mablag'lari hisobidan to'lab beriladi. Buning natijasida, birinchidan, kichik biznes subyektlarining tijorat banklari kreditlari to'lovi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari kamayadi. Bu esa, ularning pul oqimi barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bank kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, tijorat banklarini kichik biznes subyektlarini kreditlash bilan bog'liq bo'lgan risklarning darajasi pasayadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari amaliyotida imtiyozli kreditlash kichik korxonalarning 40 foiz xarajatlarini qoplaydi. Yangi firma yaratish uchun kreditlar 15 yilga beriladi. Modernizatsiya uchun 10 yilga beriladi. Foiz stavkasi 36-60 foiz bo'ladi. Davlat institutlari faqat kichik korxonalarda emas, balki kichik korxonalarning birlashmalariga ham imtiyozli foiz stavkali kreditlar beradi. Masalan, konsorsiumlar 60 foizlik kreditlar oladi[8].

Ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat buyurtmalari tizimi kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muhim va o'ziga xos shakli hisoblanadi. Masalan, Fransiyada federal kontraktlarning 25-30 foizi kichik biznes subyektlarining hissasiga to'g'ri keladi.

AQShda kichik biznes subyektlarining tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish imkoniyatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarning mavjudligi, xususan, ularning sezilarli qismida pul oqimining zaifligi, raqobat kurashidagi mavqeining zaifligi Hukumatni kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli tadbirlarni amalga oshirishga majbur qildi va ushbu tadbirlarni amalga oshirish hamon davom etmoqda. Xususan, 1993 yilda AQSH Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash ma'muriyati tashkil etildi[3].

Mazkur Ma'muriyat kichik biznes subyektlariga quyidagi turdagি moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi:

- kredit olish uchun biznes-rejalarni tuzishga yordamlashish;
- boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun pul mablag'lari berish;
- tijorat banklaridan olinadigan kreditlar uchun kafolatlar berish;
- maslahat xizmatlari ko'rsatish.

2015 yil yakuni bo'yicha AQSH tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga 726 mlrd. AQSH dollari miqdorida kreditlar berilgan bo'lsa, shuning 13 foizi Ma'muriyatning kafolati asosida berilgan kreditlardir.

Shuningdek, AQShda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 50 ga yaqin dastur ishlab turibdi. Ulardan quyidagilar eng yirik dasturlar hisoblanadi.

### 1. Kreditlarni kafolatlash bo'yicha umumiy dastur .

Ushbu dastur kichik korxonalarga tijorat kreditlashning umumiyl shartlarini qondira olmaslik holati paytlarida yordam beradigan asosiy dastur hisoblanadi. Kafolatlash dasturi doirasida har qanday tijorat korxonalarini kreditlash mumkin.

Kredit kapital yig'ish, texnik bazani tashkil etish, ko'chmas mulkni sotib olish, qarzlarni qayta moliyalashtirish ( bir qator shartlar doirasida ) maqsadlari uchun beriladi. Kreditni qaytarish muddati 10 oydan 25 oygacha qilib belgilab qo'yilgan. Mazkur dastur doirasida kreditlar faqat dastur ishtirokchilari, ya'ni ma'muriyat bilan hamkorlikda bo'lgan kredit tashkilotlari tomonidan beriladi. Kreditlar kafolat shartlari bajarilgandagina beriladi. Ya'ni dasturda ma'muriyat talablari bilan muvofiq kreditlash shartlarini keltirgan kreditorlar qatnashdilar. Agar qatnashchilar kredit ajratsalar, unda ma'muriyat bir qismli kafolat beradi. Ma'muriyat kreditning butun qismini kafolatlamaydi, u faqat qarzdor tomonidan qaytarilmagan kredit summasi doirasidagi riskni o'z zimmasiga oladi. Korxona bevosita kreditorga kredit olish uchun murojaat qiladi. Agar risk katta bo'lsa kreditor kafolat olish uchun ma'muriyatga murojaat qiladi. Ma'muriyat kafolati shundan iboratki, agar qarz oluvchi kreditni qaytara olmasa, qarz summasi federal budgetdan qoplanadi, lekin qarz oluvchini javobgarlikdan ozod qilmaydi[4].

2. Rivojlanish maqsadlari uchun investitsiya kreditlari dasturi("504" dasturi). Mazkur dastur bo'yicha amalda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va modernizatsiya qilish xarajatlari investitsion fondlar orqali kreditlanadi. Kreditlar fiksirlangan stavkalarda beriladi.

Kichik biznes subyektining faoliyati tahlil qilingandan so'ng, unga qo'chmas mulk, texnika va texnologiyalar sotib olish uchun 10 yildan 20 yilgacha muddatga bo'lgan uzoq muddatli kredit beriladi. Dastur shartlariga ko'ra kichik korxonalar toifasiga majburiyatlarni chiqarib tashlaganda 7 mln.AQSH dollarilik moddiy aktivlarga ega hamda zararlar va foyda solig'i summasini hisobga olmaganda 2,5 mln.AQSH dollarilik sof foydaga ega bo'lgan korxonalar kiradi. Dasturda ko'chmas mulkni ijaraga berish bilan shug'ullanuvchi korxonalar ishtirok etishi taqiqlanadi.

3. Mikroqarzlar dasturi. Ushbu dastur doirasida 35 ming AQSH dollarilik qisqa mudatli kreditlar xom ashyo va asbob-uskulalarni sotib olishga hamda kapital yig'imiga beriladi. Kredit qarzları qayta moliyalashtirishga va ko'chmas mulk obyektlarini sotib olishga berilmaydi. Dasturga ko'ra Ma'muriyat notijorat vositachilariga moliyaviy resurslarini beradi. Ular o'z navbatida kichik korxonalarini 6 yil mudatga kreditlaydi. Kredit summasi 10,5 ming AQSH dollaridan oshadi.

4. Loyihalarni baholash dasturi. Dastur kredit munosabatlarida loyihalari kreditorlar qo'liga yetib borguncha risklarini 250 ming AQSH dollari summasi doirasida oldindan baholash imkonini beradi.

Angliyada kichik biznesni moliyalashtirishning asosiy manbalari xususiy shaxslar jamg'armalari va bank kreditlari xisoblanadi. Kichik biznesni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda fond birjalarida qayt etilmagan kompaniyalar qimmatli qog'ozlar bozori sezilarli rol o'ynaydi. Kichik biznesni moliyalashturuvchi maxsus firmalar keng tarqalgan. Ingliz kichik korxonalarining 20 foizdan ko'prog'i Angliya banki va kiliring banklari tomonidan nazorat qilinadigan sanoat va savdo korxonalarini moliyalashtirish

korporatsiyasidan oladilar. Angliyada davlat siyosati tijorat banklarining kichik va xususiy biznes korxonalarini kreditlashdan manfaatdorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu borada hukumat dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dasturga muvofiq, davlat qaytmagan kreditlarning 70 foizini, iqtisodiy vaziyat og'ir hududlarda 85 foizini kafolatlaydi. Bunday kafolatda foiz stavkasi 2,5 foizni, iqtisodoiy vaziyati og'ir xududlarda 2 foizni tashkil etadi. Ushbu dastur bo'yicha davlat kafolatlari jami kreditning 70-80 foizini qamrab oladi. Har yili kafolatlarni qoplash uchun 50 mln.funt sterling ajratiladi[5].

Angliyada kichik korxonalarga moliyaviy yordam berish maqsadida bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan.

Ulardan biri "Grantlar tuzilmasi" dasturi kichik korxonalar ishlariga moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida ishlab chiqilgan. "Kreditlarni kafolatlash" dasturi uch yilga mo'ljallangan bo'lib, sug'urta mukofotlarini to'lashga qaratilgan. Angliyada kichik biznes korxonalari toifasiga 50 kishigacha ishchilarga ega korxonalar kiradi. Bunday korxonalarning jamlanma daromadi 300 ming funt sterlingdan oshmasligi kerak. Bu korxonalar kreditlarining 80 foizini davlat kafolati ostida oladilar.

Angliyada tijorat banklari kichik biznesni moliyalashtirish uchun alohida dasturlar ishlab chiqqanlar. Masalan Barklays Bank kichik biznesini rivojlantirish uchun ikkita dasturni ishlab chiqqan. Birinchi dasturga ko'ra kredit 5 ming funk sterlingdan 100 ming funk sterlinggacha, 5 yil muddatda 15-17 foizlik stavka bilan beriladi. Ikkinci dastur bo'yicha kreditlar 5 ming funk sterlingdan 500 ming funk sterlinggacha 2 yildan 20 yilgacha Angliya bankining amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasi bo'yicha ajratiladi.

Germaniyada kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'naliishlariga kichik va xususiy korxonalarni kengaytirish va ta'mirlash, yangi korxonalarni sotib olish va tashkil etish, ushbu maqsadlar uchun yillik kompaniyalar kapitallarini jalb etishga qarzlar berish, ishchi o'rnlarni barpo etish va saqlab qolishga uzoq muddatli investitsiyalar, energiyani tejashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni investitsion qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini subsidiyalash va boshqalar kiradi. Shuningdek biznesni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Unga muvofiq tadbirkorga birinchi ikki yillik faoliyati uchun foizsiz, keying yillarda esa imtiyozli kreditlar beriladi. Imtiyozli kreditlar biznes rejaga muvofiq davlat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi va kreditning maqsadli ishlatilishi qattiq nazoratga ostiga olinadi. Germaniyada kichik biznesni rivojlantirish dasturlari, boshqa davlatlar singari ishlab chiqarishning ilm-fan tarmoqlari qo'llab-quvvatlanadi. Kichik biznesni imtiyozli kreditlash davlat tomonidan quyidagi yo'naliishlarda moliyalashtiriladi:

- innovatsiya faoliyatiga yo'naltirilgan kichik korxonalarini kreditlash;
- ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni kreditlash;

- Germaniyaning iqtisodiy qoloq xududlarini rivojlantirishda qatnashayotgan kichik korxonalarini kreditlash;
- qurilish va uy-joy muammolari bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalarini kreditlash;
- ishlab chiqarishni yangilashga muxtoj bo'lgan tarmoqlarda faoliyat yurituvchi kichik korxonalarini moliyalashtirish.

Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish uchun “Kichik biznes korxonalari bo'yicha ilmiy-texnik siyosatini rivojlantirish konsepsiysi” va “O'z ishini ochish uchun jamg'armalarini rag'batlantirish “ dasturilari ishlab chiqilgan.

Birinchi dastur kichik biznesni moliyalashtirishni rag'batlantirsa, ikkinchi dastur “START UP” loyihamini, ya'ni o'z ishini ochish uchun xizmat qiladi. Federal dasturlarni amalga oshirish doirasida kichik biznes vakillariga imtiyozli ravishda, ya'ni past foiz stavkalarda (5-8 %) va uzoq muddatlarga (5-15 yil) kredit ajratiladi. Germaniyada kichik biznes korxonalarini toifasiga ishchilar soni 10 kishidan oshmaydigan va yillik pul aylanmasi 1 million markadan oshmaydigan kichik korxonalar kiradi. Hozirda ularning soni 4 milliondan oshiq bo'lib YAIM ning 57 foizini, jami eksportning 30 foizini va band bo'lgan aholining 70 foizini tashkil etadi. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash Jahon banki singari ixtisoslashgan banklarga beriladi. Kichik korxonlarni tashkil etishda investitsiyalarning 40 foizi kafolatsiz beriladi. Xususan, birinchi 2 yilda imtiyozli kreditlar beriladi. Kredit summasi 1 million markagacha 20 yil muddatga 10 yil imtiyozli davr bilan beriladi. Hukumat dasturlari hisobidan yangi tashkil etiladigan kichik korxonalar kapitalidan xususiy investitsiya kompaniyalarining qatnashishlarini moliyalashtirish mumkin. Kiritiladigan ulush summasi 1,5 million markagacha bo'lib, muddati 10 yil qilib belgilangan. Risk bo'yicha javobgarlikni investitsiya kompaniyalari olib boradi. Kreditlar yoki kapitalga kiritilgan qarz ulushlari qaytarmaslik riskining 80 foizi o'z zimmasiga oluvchi ixtisoslashgan kafolat banklari mavjud. Bankning 60% riskni esa bank joylashgan federal yerlar qoplaydi. Barcha federal yerlarda Jahon banki 10 yilga 5,6% stavka bilan kreditlar ajratadi. Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun kichik korxonalar 10 yilga 10 million markagacha yillik 5 % stavka bilan kredit olishlari mumkin. Shu bilan birga davlat xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etuvchi kichik korxonlarni subidiyalaydi.

Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida kichik va xususiy biznesga eng katta yordam birinchi navbatda ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash Yaponiyada amalga oshiriladi. Bu yerda har yili ana shu maqsadga 180 milliard yena budget mablag'lari ajratiladi. kichik korxonalar davlat investitsiyalari va qarzlari dasturlari doirasida ham moliyalashtiriladi. Biroq bu mablag'lar kichik firmalarga bevosita emas balki tijorat asosida Tijorat kredit muassasalari orqali yo'naltiriladi. Bunday muassasalar zimmasiga xususan Yaponiya hukumati ishtirokida barpo etilgan kichik biznes korporatsiyasini kiritish mumkin. Uning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri kichik korxonlarga imtiyozli davlat kreditlarini taqdim etishdir. Mazkur korporatsiya

har yili kichik firmalarga 20 mld. yena miqdorida yordam ko'rsatadi. Kichik biznesni kreditlash va davlat qarzlarini yig'ish mexanizmini ta'minlash maqsadida Yaponiyada kichik biznesni sug'ortalash korporatsiyasi va kreditlarni kafolatlash assotsiatsiyalari tashkil etilgan. Kichik biznes korxonalarini rag'batlantirish markaziy hukumatdan kichik korxonlarning mustaqil birlashmalarigacha amalga oshiriladi. Markaziy va mahalliy hukumat organlari yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etuvchi kichik korxonlarni subsidiyalaydi. Bunday korxonalarga davlat kreditlashni ta'minlash maqsadida kafil bo'ladi va boshqa kredit kafolatlarini beradi.

Subsidiyalar, qarzlar, kreditlar kichik biznesga quyidagi maqsadlar uchun imtiyozli shartlarda beriladi:

- ilm-fan korxonalarining moddiy-texnik bazasini yaratish;
- universitet va institutlar bilan hamkorlikda innovatsiya loyihamonlari ishlab chiqish;
- yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish;
- yangi texnologiya va yangi tovar turlarini yaratish;
- mamlakatning ishlab chiqarishda qoloq hududlarida yangi kichik biznes korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish.

Yaponiya YAIMning 60 foizdan ortig'i kichik biznes ulushiga to'g'ri keladi. Yaponiya iqtisodiyotida kichik biznes sohasi 30 million kishini (shu jumladan 1.4 million kishi yakkaa tadbirkorlikda) ish bilan ta'minlaydi. Bu esa mamlakatda band bo'lgan aholining 70 % ni tashkil etadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlaridan Bangladesh tajribasi kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning muvaffaqiyatlari tajribasi sifatida ko'plab mamlakatlar tomonidan o'r ganilmoqda. Shu sababli, ushbu tajribani o'r ganishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bangladeshning Gramin banki kichik biznes subyektlarini kreditlash borasida katta tajribaga ega bo'lgan tijorat banki hisoblanadi.

Graminbank tomonidan kredit to'loviga layoqatliligi yuqori bo'lgan mijozlarga kreditlar bozor stavkasida berildi. Bu esa, birinchidan, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini berdi; ikkinchidan, aholining qashshoq qatlamiga imtiyozli stavkalarda berilgan kreditlar natijasida yuzaga kelgan moliyaviy yo'qotishlarning o'rnini qoplash uchun sharoit yaratadi.

Graminbank tomonidan kreditlar berishda kichik biznes subyektlarining investitsiya loyihamonlari iqtisodiy va ijtimoiy samarasiga alohida e'tibor beradi. Loyiha iqtisodiy jihatdan samara berishi bilan birga, yangi ish o'rnlari yaratish imkonini berishi kerak.

Gramin bank o'zining mablag'lari hisobidan Gramin Kapital fondini tashkil etdiki, ushbu Fondning faoliyatini kengayib, kichik biznes subyektlarining yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga mo'ljallangan loyihamonlari moliyalashtirishga ixtisoslashgan mustaqil vechur fondiga aylandi[9].

Bundan tashqari, Graminbank kichik biznes subyektlariga qo'shimcha ravishda quyidagi kredit xizmatlarini ko'rsatadi:

- istiqbolli, lekin vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan kichik biznes subyektlarini kredit hisobidan sotib olish;
- kredit hisobidan kichik biznes subyektlarining ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish;
- baliqchilik va chorvachilikni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlariga kreditlar berish .

#### Tahlil va natijalar

Fikrimizcha, Germaniya va Fransiyaning kichik biznes subyektlarini bonifikatsiya usulida kreditlash bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ushbu tajribani respublikamiz amaliyotida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagi kreditlash tartibini joriy qilish lozim.

Birinchi bosqichda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar beradigan tijorat banklari bilan shartnomalar tuziladi.

Shartnomalar tuzishda tijorat banki faoliyatining quyidagi jihatlariga e'tibor qaratilishi lozim:

- bankda likvidlilik muammosi mavjud bo'lmasligi lozim;
- tijorat banki resurs bazasining yetarligi ta'minlangan bo'lishi lozim (sof barqaror moliyalashtirish meyori koeffitsiyenti to'liq bajarilgan bo'lishi kerak).

Ikkinci bosqichda Moliya vazirligi va tijorat banki o'rtaida shartnoma, tijorat banki bilan kichik biznes subyekti o'rtaida kredit shartnomasi tuziladi.

Uchinchi bosqichda tijorat banki kichik biznes subyektiga imtiyozli kredit beradi.

To'rtinchi bosqichda Moliya vazirligi kichik biznes subyektiga berilgan kreditning imtiyozli stavkasi bilan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o'rtaida farq summasini tijorat bankining "Nostro" vakillik hisobraqamiga tashlab beradi.

Respublikamizda milliy ssuda kapitallari bozori mavjud bo'limganligi sababli bazaviy stavka sifatida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi olinishi kerak.

Bangladeshning Gramin bankining filiallarni resurslar jalb qilish va kreditlash berishdagi mustaqilligini oshirish borasidagi tajribasini O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Respublikamizda tijorat banklari filiallarining mustaqillik darajasi nisbatan past. Har qanday summadagi kreditni chiqarish uchun Bosh ofisning ruxsati talab etiladi. Bundan tashqari, banklarning filiallari resurslar jalb qilishda ham mustaqillikka ega emas.

Shuningdek, Gramin bankning kreditlarni qo'llab-quvvatlash fondlarini tashkil qilish tajribasi ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fondlarni respublikamiz amaliyotida tashkil etish va ularni keyinchalik venchur fondlariga aylantirish kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalalarini moliyalashtirish hajmini oshirish imkonini beradi. Buning natijasida kichik biznes

subyektlarining faoliyati yanada kengayib, ularning moliyaviy barqarorlik darajasi oshishi mumkin.

Kreditlarni qo'llab-quvvatlash fondini, fikrimizcha, ikki xil manba hisobidan tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

1. Davlat budgetining mablag'lari hisobidan tashkil etish.
2. Tijorat banklarining kreditlari hisobidan tashkil qilish.

Rossiyaning yirik davlat banklari orqali kichik biznes subyektlarini kreditlash tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiyada tijorat banklarini tanlashda bankning yetarli darajada likvidli bo'lishiga, aktivlarning risk darajasiga katta e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida Bazel qo'mitasining bank nazoratiga oid bo'lgan yangi talablarining qabul qilinganligi banklarning likvidliligining oshishiga, ular faoliyatidagi risklarning darajasini pasayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kichik biznesni kreditlash jarayoniga jalg etiladigan tijorat banklari sonini ko'paytirish imkonini beradi.

Xorijiy davlatlarning kichik biznes subyektlarining eksport-import operatsiyalarini kreditlashni rivojlantirish borasidagi tajribasini o'rganish ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari ko'rsatdiki, kichik biznes subyektlarining eksportini kreditlashda tijorat banklarining xalqaro faktoring va xalqaro forfeyting kreditlaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston banklari xalqaro forfeyting kreditlari bera olmaydi. Chunki, tijorat veksellari muomalasi mavjud emas.

Ammo xalqaro faktoring kreditlaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Buning uchun, fikrimizcha, quyidagi talablarni joriy qilish lozim:

- tovar hujjatlarini regress huquqi bilan va regress huquqisiz sotib olishga ruxsat berish lozim;
- xalqaro faktoring to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga zid keladigan meyoriy-huquqiy hujjatlar talablarini bekor qilish zarur;
- tijorat banklarining kichik biznes subyektlariga berilgan xalqaro faktoring kreditlaridan oladigan daromadlariga nisbatan soliq imtiyozlarini joriy qilish lozim.

Shuningdek, kichik biznes subyektlarining import operatsiyalarini kreditlashda ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanish xususidagi xorijiy tajribani o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda esa, kichik biznes subyektlarining import operatsiyalarini moliyalashtirishda ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Buning natijasida, kichik biznes subyektlariga tegishli pul mablag'larining ma'lum qismi ularning xo'jalik aylanmasidan chiqib qolmoqda.

Kichik biznes subyektlari importini ta'minlanmagan akkreditivlar hisobidan moliyalashtirish jarayoniga tijorat banklarining kreditlarini keng ko'lamda jalg qilish

mazkur subyektlar importini moliyalashtirish, uning uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi. Bunda banklarning overdraft va muddatli kreditlaridan hujjatlashtirilgan akkreditivni to'lashda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, rivojlangan davlatlarda va ayrim o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznesni kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish borasida katta va yuqori tajriba to'plangan; ikkinchidan, ilg'or xorij tajribasini qo'llash respublikamizda kichik biznes subyektlari faoliyatini kreditlash tizimini rivojlantirish imkonini beradi; uchinchidan, xorij tajribasini qo'llashda mamlakat banklari kreditlash amaliyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu albatta bizga mamlakatning yalpi ichki mahsulotining o'sishiga turtki bo'ladi[12-13].

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik.-T.: "Iqtisod-Moliya", 2017.-732 b.
2. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. – 304 b.
3. Антонов Н.П., Пессель М.А. Денежное обращение, кредит и банки: Учебник.- М.: ЮНИТИ, 2006.- 510 с.
4. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: Учебник. - М.: Изд-во «Высшее образование», 2009.- 424 с.
5. Волков А.А. Управление рисками в коммерческом банке М.: Омега-Л, 2012. -160с.
6. Воробьев Е.М. Экономическая теория: Учебное пособие. 2-е изд, испр. и доп.- М.: Эксмо, 2009. - 272 с.
7. Галицкая С. В. Деньги. Кредит. Финансы: Учебное пособие: 2-е изд., перераб. и доп. Сер. Высшее экономическое образование. - М.: Эксмо, 2009. - 736 с.
8. Государственное регулирование рыночной экономики: Учебник. - 3-е изд., доп и перераб. / Под ред. В. И. Кущилина. - М.: Изд-во «РАГС», 2010. - 616 с.
9. Деньги. Кредит. Банки: учебник. - 2-е изд., перераб. и доп. / Под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова.- М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. - 848 с.
10. Димитриади Г.Г. Риски управления банком СПб.: ЛКИ, 2010. – 240 с.
11. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining raymiy sayti(stat.uz).
12. Намазов Г.Ш. худуд ижтимоий-иктисодий ривожланишини моделлаштириш ва прогнозлаш ёндашувлари таҳлили //Журнал Инновации в Экономике. – 2021. – Т. 4. – №. 6.
13. Намазов Г. сурхондарё вилояти ижтимоий-иктисодий ривожланишини эконометрик моделлаштириш //Involta Scientific Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 27-37.